

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2026- yilning yanvar-iyun oylarida Samarqand viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 67 361,0 mlrd so'mni tashkil etdi va 2025- yilning yanvar-iyun oylari bilan taqqoslaganda 9,7 % ga o'sdi.


YAHM deflyator indeksi 2025- yilning yanvar-iyun oylari narxlariga nisbatan 109,6 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Samarqand viloyatining qo'shgan hissasi 6,3 % ga yetdi.

2026- yilning yanvar-iyun oylarida Samarqand viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



-  YAHM o'sish sur'ati
-  YAHM hajmi
-  YAHM deflyator indeksi
-  YAIMga qo'shgan hissasi



2026- yilning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2025- yil	2026- yil	
I. YAHM, jami	56 041,9	67 361,0	109,7
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	55 144,6	66 290,2	109,6
mahsulotlarga sof soliqlar	897,3	1 070,8	117,7
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	55 144,6	66 290,2	109,6
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	14 484,7	15 968,4	104,5
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	11 705,3	15 811,8	116,2
sanoat	8 790,0	11 796,8	109,8
qurilish	2 915,3	4 015,0	135,4
xizmatlar	28 954,6	34 510,0	109,4
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	10 474,4	12 769,4	113,9
tashish va saqlash, axborot va aloqa	4 434,3	5 683,4	121,2
boshqa xizmat tarmoqlari	14 045,9	16 057,2	102,4

Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 15 320,7 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 7,7 % ga yuqoridir.

2026- yilning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming so'mda)



2026- yilning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)



Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2025- yil	2026- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	98,4	98,4
mahsulotlarga sof soliqlar	1,6	1,6
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	26,3	24,1
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	21,2	23,9
sanoat	15,9	17,8
qurilish	5,3	6,1
xizmatlar	52,5	52,0
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	19,0	19,3
tashish va saqlash, axborot va aloqa	8,0	8,6
boshqa xizmat tarmoqlari	25,5	24,1




2026- yilning yanvar-iyun oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 98,4 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 1,6 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 24,1 % ni, sanoat tarmog'i 17,8 % ni, qurilish 6,1 % ni va xizmatlar sohasi 52,0 % ni tashkil qildi.

Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlaribo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2025- yil



2026- yil




● Yalpi qo'shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,2 f.p. (2025- yilning yanvar-iyunida – 1,1 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,5 f.p. (2025- yilning yanvar-iyunida – 1,2 f.p.), qurilish tarmog'i – 1,8 f.p. (2025- yilning yanvar-iyunida – 1,3 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 4,9 f.p. (2025- yilning yanvar-iyunida – 3,2 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.


Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,3 f.p. (2025- yilning yanvar-iyunida – 0,2 f.p.)ga ko'paydi.

2026- yilning yanvar-iyun oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)




2026- yilning yanvar-iyun oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 104,5 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 24,1 %), sanoatda – 109,8 % (17,8 %), qurilishda – 135,4 % (6,1 %), xizmatlar sohasida – 109,4 % ni (52,0 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 113,9 % (19,3 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 121,2 % (8,6 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 102,4 % dan (24,1 %) iborat bo'ldi.

Yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2026- yilning yanvar-iyun oylarida YAHM deflyatori indeksi 2025- yilning yanvar-iyun oylaridagi narxlarga nisbatan 109,6 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoat sohasida – 122,3 % va qishloq, xizmatlar sohasida – 108,9 % qayd etildi.

Yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2026- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik 44 565,4 mlrd so'mni tashkil etdi (2025- yilning yanvar-iyun oylarida – 39 011,3 mlrd so'm). YAHMdagi ulushi 67,2 % ni (2025- yilning yanvar-iyun oylarida – 70,7 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining o'sishi bilan bog'liq.

Yanvar-iyun oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

